

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH

**Saparboyeva Zilola Sobirjon qizi**

*KIUT Universitet 3-KURSurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Mamlakatimizda keyingi yillarda ona-tabiatni asrash, biologik turlarni saqlab qolish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekistonda 2001-2005 yillarda G'arbiy Tyan-Shanning biologik turlarini asrash bo'yicha xalqaro bank-GEF loyihalari va xalqaro loyiha EuropeAid loyihasi amalda bo'ldi. Bu loyihalar atrof muhitni muhofaza qilish, mahalliy aholini turizmga jalb qilish bilan bevosita bog'langan.*

*Kalit so'zlar: Iqtisodiy, o'rmon, massivlariasosan, suvni asrash, himoya, sanitariya-gigiena, sog'lomlashtirish, rekreasion.*

Iqtisodiy jihatdan murakkab davrda aholi ko'proq yagona moddiy manba sifatida natural xo'jalikka suyanadi va shuning uchun ham chorvachilik va dehqonchilikni jadal rivojlantiradi. Tabiiyki, bunday sharoitda shudgor va yaylov uchun davlat muhofazasidagi bog'lar va qo'riqxonalar ham foydalaniladi. Natijada insonning hali o'zlashtirilmagan hududlarga faol "hujumi" yuz beradi, oqibatda ekologiya buziladi va ba'zi turlar yo'qolib ketadi. O'zbekiston Respublikasining "O'rmonlar to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasiga ko'ra, o'rmon massivlariasosan ekologik (suvni asrash, himoya, sanitariya-gigiena, sog'lomlashtirish, rekreasion), estetik va foydalanish cheklab qo'yilgan boshqa vazifalarni o'taydi.

Aholi turar joy, ovqatlantirish, transport, odatlar va hunarlarini namoyish qilish, gidlik, himoya va xavfsizlik xizmatlarini ko'rsatadi.

Bu sohani rivojlantirish milliy an'analar va xalqimizga xos bo'lgan mentalitetga asoslangan mahalliy hunarmandchilikni rag'batlantiradi: aholi o'zining imkoniyati darajasida hunarmandchilik kasblarini, ovchilikni tiklaydi. Bu unga katta investisiya talab qilmaydigan qo'shimcha daromad manbai bo'ladi. Bundan tashqari, mahalliy aholi boshqa hududlardan keltirib emas, balki o'zi etishtirgan sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan turistlarni ta'minlaydi, ya'ni yordamchi xo'jalik (aholi uy-joy tomorqasidagi bo'sh erlarga ekilgan sabzavot mahsulotlari) ham daromad keltira boshlaydi.

Natijada aholining o'zi tabiatni faol qo'riqlay boshlaydi, chunki atrof muhit buzilsa, chet ellik turistlar kelmay qo'yadi, bu esa maxalliy aholining daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli manfaatdor tomonlar o'z mablag'larining bir qismini tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga hamda madaniyat va san'at yodgorliklarini ta'mirlashga ajratishga majbur bo'ladi.

Muhimi bu sohani rivojlantirish kommunikasiyalarni, yangi texnologiyalarni rag'batlantiradi, yo'llar qurilishi, aloqa liniyalari o'tkazilishi, tibbiyot, ichimlik suvi, energiya va hokazolar bilan bog'liq faoliyat turlari paydo bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida shubhasiz, turizmni rivojlantirish va rekreasion faoliyatni jonlantirishda hukumat etakchi islohotchi bo'lishi lozim. Chunki, tabiatdan betartib, aniq rejasiz foydalanish mamlakat uchun katta zararlarni olib kelishi mumkin. SHuning uchun respublikamizda bu sohaga alohida yondoshuv bo'lib, muhim qarorlar qabul qilinmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 10 martdagi 83-raqamli "Tabiiy boyliklarni saqlash hamda Chimyon-Chorvoq hududini o'zlashtirishga kompleks va izchil yondoshishni ta'minlash to'g'risida"gi Qarorida aytilishicha, bu hudud o'z tabiiy-iqlimiy sharoitlari bo'yicha kurort va rekreasion xarakterdagi alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududga kiradi. Shu munosabat bilan tabiatga sezilarli zarar keltiradigan korxonalar tomonidan bo'ladigan ekologik tahdidni kamaytirish hamda mahalliy turizmning salohiyatini aniqlash maqsadida bu hududda infratuzilmani restrukturizatsiyalash ishlari o'tkazildi.

G'arbiy Tyan'-Shan-bu uch davlat O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonning hududi. Shuning uchun bu davlatlar o'rtasida faol hamkorlik va muvofiqlikka erishmay turib bu erda turizmni rivojlantirib bo'lmaydi. Bunda masala faqat xorijiy sayyohatchilar yoqtiradigan transchegaraviy turistik marshrutlarni yaratish ustida emas, balki tabiiy boylikni asrash, hayvonlarni noqonuniy yo'l bilan ovlash orqali ularni vahshiyona qirib yuborishga yo'l qo'ymaslik, industriyaning salbiy ta'sirini kamaytirish, mahalliy iqtisodiyotni ko'tarish ustida hamdir. Hududni rivojlantirishdan hokimiyat ham, mahalliy jamoa ham manafaatdor bo'lishi lozim. Ular o'z hududlarida yuz beradigan barcha xo'jalik jarayonlarini nazorat qilishi va boshqarish ishlari jilovini o'z qo'llariga olishlari kerak. G'arbiy Tyan'-Shanning tabiiy boyliklarini asrash yuzasidan TESIS loyihasi aynan shu muammoni hal qilishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda ekoturistik mahsulotga xorijiy va mahalliy turistlar orasida ehtiyoj katta. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, Markaziy Osiyo tabiat qo'yniga qilinadigan sayyohatchilar uchun o'ziga xos "Makka" bo'lib qolishi mumkin. SHu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 aprelda "O'zbekiston Respublikasi 2006-2010 xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-325-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorni amalga tadbir qilish hamda ekoturizmni rivojlantirish maqsadida Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi va uning yaqin kelajakdagi istiqbollari"ni ishlab chiqdi.

Ushbu Konsepsiyada Vatanimizda ekoturizmni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar, tashkiliy-huquqiy masalalar ko'zda tutilgan. Bu masalalar amalga oshirilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi jahondagi ekologik turizmi taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida o'z o'rnini egallashi imkoniyatlari katta.

O'zbekistonda turizm katta imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramay, yalpi milliy mahsulot yaratishda uning ulushi atiga 0,5% ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, mehmondorchilikni o'rniga qo'yish uchun tovarlar etkazib beradigan va har xil xizmatlar ko'rsatadigan boshqa sohalar-energetika, kommunal xo'jalik, yo'l xizmatlari, jamoat xavfsizligi, tibbiyot, sug'urta, banklar, tashqi siyosat va



aloqlar va hokazo (xalq xo'jaligining 20 dan ortiq tarmog'i) mavjud. Biroq, turizmning o'ziga xos tomonlari shundaki, garchi xizmat ko'rsatish darajasi va sifatini baholash mumkin bo'lsa ham, hech qanday o'lchovlar bilan baholab bo'lmaydigan "samaralar"-taa'surot, ma'naviy ozuqa, qoniqish, estetik zavq-shavq kabilarni ko'plab sanab o'tish mumkin.

Ma'lumki, tovarlar bilan savdo qilish, xizmatlar bilan savdo qilishdan farq qiladi. Xizmatlar o'ziga xos "mahsulotlar" bo'lib, transport, kommunikasiya, qurilish, sug'urta, moliya, kompyuter va axborot xizmatlarini, buxgalterlik hisobi va boshqaruv maslahati va hokazolarni o'z ichiga oladi. Xizmatlarning narxini belgilash uchun asos bozor hisoblanadi. Uni tomonlar bitim tuzish paytida kelishib olishadi. Turizm pravayderlar taklif qiladigan ana shunday xizmatlar majmuidir. Turizmدا tovar (ob'ekt, mamlakat) xaridorga olib kelinmaydi, aksincha, xizmatlar iste'molchisi (xaridor) unga keladi.

Xizmatlar eksporti deganda o'z doimiy yashash joyi hisoblanmagan mamlakatga dam olish, xizmat yuzasidan, xususiy ish va boshqa maqsadlar bilan tashrif buyuruvchi shaxslarning xarajatlari tushuniladi. U sayyohat (tur) ga to'langan haq, tashrif buyurilgan mamlakatda xorijiy turistlarga ko'rsatilgan pullik xizmatlar haqi, mehmonxonalar va boshqa joylashtirish makonlarida ajratilgan xonalar haqi, sovg'a (suvenir) tovarlar sotishdan, xalqaro transport xizmatidan ko'rilgan foydani o'z ichiga oladi. O'z navbatida mehmonxona xo'jaligining daromadlari-xonalarga to'lanadigan haq, ovqatlantirish uchun ko'rsatiladigan xizmatlar haqi, restoranlar, barlar, tungi klublardan foydalanish, banketlar va konferensiyalar tashkil etish, transport bilan ta'minlash, teatr chiptalari, sovg'alar sotish va boshqa xizmatlar ko'rsatishdan tushgan daromadlardir. Turizm importi-mamlakat fuqarosining turli maqsadlarda va bir yildan ko'p bo'lmagan muddatga mamlaktdan chiqishi bilan bog'liq bo'lgan iste'mol xarajatlari summasidan iboratdir. Bu ko'rsatkichlar safarni tayyorlash va amalga oshirish xarajatlarini, sayyohat vaqtida va tashrif buyuriladigan joylarda paydo bo'ladigan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Bu harajatlar xorij safaridan qaytilganidan so'ng chiqilgan mamlakatda hisob-kitob qilinadi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2006 yilda turistik xizmatlar importining 1 AQSh dollariga 21,2 AQSh dollari miqdorida eksport to'g'ri kelgan, 2007 yilda bu nisbat 1:23,8 dollarni tashkil qilgan, ya'ni 112% ga o'sish kuzatilgan. Biroq, ko'rsatkichlarni tuzishda shuni sezish mumkinki, xizmatlar eksporti 14,7% ga, importi 24% ga, manfiy salido 14,3 ni tashkil etgan.

Ma'lumki jahonda biron bir omil statik xarakterga ega bo'lmaydi, shunday o'zgarishlar yuz beradiki, ular mamlakatlardagi vaziyatning yaxshilanishiga yoki yomonlashishiga sabab bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda turistlar vaziyatning o'zgarishiga "oyoq"lari bilan javob beradilar: ularga nimadir yoqmasa, ular o'z safar yo'nalishlarini o'zgartiradilar. Jahon amaliyotida milliy va xorijiy fuqarolarning yil maboynida mamlakat bo'ylab qilinadigan sayyohatlari hajmini ichki turizm deb hisoblash qabul qilingan. Shu bilan birga, ushbu mamlakatning fuqarosi hisoblangan

turistlar sonini ko'pincha aniqlash qiyin, chunki safar chog'ida ular rasmiylik (qayddan o'tish) ni bajarmaydilar, har doim ham otellar, pansionatlar va dam olish uylarida turmaydilar, ularning tashriflari boshqa maqsadlar (xarid qilish, qarindosh-urug'larni yo'qlash, to'ylarga borish) bilan uyg'unlashib ketadi. Bunday sayyohatlar mamlakat ichidagi safarlarning asosiy qismini tashkil etadi. Bunday sayyohatlar odatda kech bahor, erta yozda va kuzda ancha avj oladi. Bunday sayyohatchilar ancha arzon tushadigan temir yo'l va avtomobil transportini xush ko'rishadi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2008 yilda xorijlik turistlar Qoraqolpog'iston, Andijon, Namangan, Sirdaryo va Toshkent viloyatlariga bormagan. Ammo bu holatni to'g'ri deb bo'lmaydi. Chunki turistik firmalar o'z mijozlarining u joylarga borishini tashkiliy ravishda amalga oshiradi, lekin ular mehmonxonalar va turbazalarda turmaydi.

Ayni paytda shu narsa diqqatga sazovorki, ichki turizmning umumiy hajmida xizmat ko'rsatiladigan xorijliklarning ulushi 50,7% ni tashkil etadi, Xorijdan tashrif buyuruvchilarning eng ko'pi Toshkent shahri (50,1%), Buxoro viloyati (19,1%), Samarqand viloyati (15,4%), Xorazm

(8,94%) va Surxondaryo (3,88%) viloyatlariga to'g'ri kelgan. Shunday qilib, Navoiy viloyatiga kelgan turistlarning 94,8% boshqa mamlakatlarning fuqarolaridir. Buxoro viloyati bo'yicha bundaylar 73,9% ni, Samarqand viloyati bo'yicha 51,7% ni, Surxondaryo viloyati bo'yicha 84,2%.

O'zbekistonda tarixiy-madaniy, me'moriy, arxeologik jihatdan qiziqarli bo'lgan 7,0 mingdan ortiq ob'ekt bor. Ana shular xorijliklarni ohanrabodek o'ziga tortadi. B. To'raevning ta'kidlashicha, "... ulardan 545 me'morchilik, 575 tarixiy, 1457 sa'nat yodgorliklari, 5500 dan ortiq ob'ekt arxeologik jihatdan qadrli hisoblanadi. Lekin turistik talabga ulardan atiga 70 tasi jalb qilingan. Yuqorida sanab o'tilgan ob'ektlardan 200 tadan ortiqrog'i ta'mirlanmoqda, 500 tasi ta'mirtalab; ana shularga har yili o'n million dollorlab mablag' sarflash lozim. Boshqa mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'p turistlar uchun o'sha ta'mirlash jarayonining o'zi qiziqarli. Shu jihatdan O'zbekistondan bir necha ming orxeologik ob'ektlar mavjud. Bundan tashqari Respublikamizda 300 dan ortiq muzey, 1200 ta xalq ijodi korxonalar bor. Turistlar tashrif buyuriladigan ob'ektlar soni Toshkentda 144 ta, Samarqandda 118 ta,

Buxoroda 221 ta, Xivada 310 ta. Biroq, umuman olganda, turistik solahiyatdan kam foydalaniladi".<sup>9</sup>

O'zbekistonga turistik yoki xususiy yo'nalish bo'yicha tashrif buyuruvchi shaxslarni kamida 10% o'z sayyohatlarining ekologik jihatlari bilan qiziqadi: ular yoki tabiiy hududlar (bog'lar, tog'lar, o'rmonlar, ko'llar) ga tashrif buyurishadi, yo bo'lmasa, yaqinroq qishloq joylarga bir kunlik ekskursiya qilishadi.

Ularning kamida 60 % aralash turga ehtiyoj sezishadi, xususan, etnografiya bilan ekologiyaga qiziqishadi<sup>10</sup>.

Natijada tashkiliy turistlar ekologik turlarga "ixtisoslashishmoqda". Shunday qilib turizmning yangi shakli-ekologik turizm shakllanmoqda. Ekologik turizmning umumiy



turizm bozorida aniq o'rnini ko'rastish qiyin, albatta. Ko'pincha uni boshqa turistik xizmat turlaridan ajratish qiyin.

Lekin turizmdagi bu yangi yo'nalish hissasi hali juda pastligi aniq. Bu sohaning nisbatan kam o'rganilganligi va istiqbolli ekanligi uni nazariy ilmiy tahlil etishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Rivojlanib borayotgan mamlakatning turizm industriyasi asosan tabiiy yoki ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. Ekspertlarning ma'lumotlariga qaraganda ekoturizm sayyohlik bozorining 10-20 % qamrab olgan, o'sish sur'ati esa umumiy turizm industriyasining o'sish sur'atidan 2-3 marotaba oshib ketgan. Ammo ekoturizmning mamlakatimizdagi salohiyat ko'rsatkichlari, maqsadi, tashkiliy-huquqiy, ta'lim tarbiya, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, bu sohada xizmat va servis ko'rsatishni rivojlantirish muammolari etarli darajada ishlab chiqilmagan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish . T.: "O'zbekiston", 2010.

2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. -T.: O'zbekiston, 1993.

3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.T.1.-T.: O'zbekiston, 1996.

4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lida. T.4.-T.: O'zbekiston, 1996.

5. Karimov I. A. 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2010-yil 29-yanvar.

6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2010.

7. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz tarqqiyotini yuksaltirish, xaqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident I.Karimovning 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2011 yil 21 yanvar, 2-b.

8. Karimov I. A. 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2012 yil 20 yanvar, 2-b.

9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi // "Xalq so'zi", 2012 yil, 20 yanvar.